



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING QARORI

2021 y. “28” oktabr № 43

“Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy Nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796- son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksini hisoblash bo‘yicha xalqaro tajribalardan foydalangan holda, yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi **qaror qiladi**:

1. Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 29- maydagi 17- son “Sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy Nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov